

**ASTRONOMIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.02/20.12.2019.FM.15.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ASTRONOMIYA INSTITUTI**

**ERGASHEV KAMOLIDDIN ESHTURSUNOVICH**

**QUYOSH TIZIMI KICHIK JISMLARINING ORBITAL VA FIZIK  
PARAMETRLARINI TADQIQ ETISH**

**01.03.01 – Astronomiya**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
physical and mathematical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
физико-математических наукам УДК 523.2, 523.4**

**Ergashev Kamoliddin Eshtursunovich**

Quyosh tizimi kichik jismlarining orbital va fizik parametrlarini tadqiq  
etish..... 3

**Эргашев Камолиддин Эштурсунович**

Исследование орбитальных и физических параметров малых тел  
Солнечной системы..... 21

**Ergashev Kamoliddin Eshtursunovich**

Study of orbital and physical parameters of the Solar system small  
bodies..... 40

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**ASTRONOMIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.02/20.12.2019.FM.15.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ASTRONOMIYA INSTITUTI**

**ERGASHEV KAMOLIDDIN ESHTURSUNOVICH**

**QUYOSH TIZIMI KICHIK JISMLARINING ORBITAL VA FIZIK  
PARAMETRLARINI TADQIQ ETISH**

**01.03.01 – Astronomiya**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/FMxxx raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.astrin.uz](http://www.astrin.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Egamberdiyev Shuhrat Abdumannapovich,**  
Fizika-matematika fanlari doktori, Akademik

**Rasmiy opponentlar:** **Yo'ldoshev Qudratillo Xabibullayevich,**  
Falsafa doktori (PhD), O'zR FA AI

**Axunov Tal'at Axmatovich,**  
Fizika-matematika fanlari doktori, O'zMU

**Yetakchi tashkilot:** **Fesenkov nomidagi Astrofizika Instituti,**  
**Qozog'iston**

Dissertatsiya himoyasi Astronomiya instituti huzuridagi PhD.02/20.12.2019.FM.15.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisidabo'libo'tadi. (Manzil: 100052, Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, Astronomiya instituti. Tel. (+99871) 235-81-02; faks (+99871) 234-48-67; e-mail: info@astrin.uz).

Dissertatsiya bilan Astronomiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100052, Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, 33-uy, O'zR FA AI. Tel. (+99871) 235-81-02).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ – raqamli reestr bayonnomasi)

**D.Sh. Fazilova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., professor

**I.A. Ibragimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi f.-m.f.n., katta ilmiy xodim

**A.B. Abdikamalov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi  
f.-m.f.d., yetakchi ilmiy xodim

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda Quyosh tizimi kichik jismlarini izlash va o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar natijasi sifatida, bugungi kunga qadar Quyosh tizimida 1.3 milliondan ortiq ob'yektlar aniqlangan. Xalqaro Astronomiya ittifoqi (XAI) ning 2006-yildagi klassifikatsiyasiga ko'ra, Quyosh tizimi kichik jismlari tarkibiga transneptun ob'yektlar, kometalar va asteroidlar kiradi. Aniqlangan va kataloglashtirilgan kichik jismlarning deyarli 99 foizini asteroidlar tashkil qiladi. Asteroidlar Quyosh tizimi shakllanishining ilk davrlariga tegishli protoplanetar tumanlik qoldiqlari hisoblanadi va ular o'tgan vaqt davomida deyarli o'zgarmagan. Bu esa asteroidlar populyatsiyasi va dinamikasini o'rganish orqali Quyosh tizimining o'tmishi va shakllanish jarayonini yaxshiroq tushunish imkoniyatini beradi. Bu borada XAIning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategik rejasida<sup>1</sup> "...Quyosh tizimining shakllanishi va evolyutsiyasini chuqurroq o'rganishni rivojlantirish va ushbu ob'ektlarning statistik tahlillarini o'tkazish" vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning yechimida, Quyosh tizimi kichik jismlarining o'z o'qi atrofida aylanish davri va orbital aylanish davrlarini o'lchash, bu aylanish davrlarining gravitatsion va nogravitatsion kuchlar ta'sirida vaqt bo'yicha o'zgarishlarini aniqlash, asteroidlar populyatsiyasi va dinamikasini monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga, jumladan, asteroidlarga kosmik missiyalar yuborishdan tashqari, Yerdagi kuzatuv nuqtalariga asoslangan keng ko'lamli optik kuzatuvlarni tashkillashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Quyosh tizimi kichik jismlarning orbital va fizik parametrlarini aniqlash, tez aylanuvchi nosferik asteroidllarga nogravitatsion kuchlar ta'sirini baholash, ularning spini, shakl modeli va boshqa fizik parametrlarini o'rganish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, yakka, qo'shaloq asteroid tizimlari va aylanish-parchalanish orqali hosil bo'lgan o'zaro genetik bog'liq asteroid juftliklarining populyatsiyasi va dinamikasini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb ahamiyatga ega.

Respublikamizda hozirda Quyosh tizimi kichik jismlarini kuzatish, ularning orbital va fizik parametrlarini tadqiq qilish va shu orqali ularning evolyutsiyasi, dinamikasi va populyatsiyasini o'rganishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda va ma'lum ijobiy natijalarga erishildi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>2</sup> "...Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish" va "...Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish" yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada sayyoramiz orbitasiga juda yaqin orbitalarda harakatlanuvchi va sayyoramizdagi biologik hayotga xavf soluvchi Potensial Xavfli Asteroidlar (PXA) ni monitoring qilishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dissertatsiya ishi insoniyat sayyoraviy mudofaa maqsadlarida ilk marta

---

<sup>1</sup> IAU Strategic Plan 2020–2030. [https://www.iau.org/static/administration/about/strategic\\_plan/strategicplan-2020-2030.pdf](https://www.iau.org/static/administration/about/strategic_plan/strategicplan-2020-2030.pdf)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni

zarba berish usulini sinab ko‘rgan DART (Double Asteroid Redirection Test) missiyasi doirasida Maydanak observatoriyasida hamkorlikda olib borilgan kuzatuvlarni ham qamrab olgan. Tadqiqot ishi Yaponiyaning Chiba texnologiyalar instituti va Chexiya fanlar akademiyasining Astronomiya instituti bilan hamkorlikda olib borilgan izlanishlar natijalarini o‘z ichiga olgan.

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PP-5032-sonli “Fizika sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda berilgan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 29.10.2020 yilda chiqarilgan PF-6097-sonli farmonining 3-bob “Ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” da keltirilgan bandlari - “uchinchisi, yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish” va “beshinchisi, ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi vaqtda Quyosh tizimi kichik jismlarini tadqiq etish, jumladan, ularning orbital va boshqa fizik parametrlarini aniqlash, sinflashtirish, ularga Yarkovskiy va YORP (Yarkovsky–O’Keefe–Radzievskii–Paddack) kabi effektlarning ta’sirini baholash va boshqa turli nazariy va amaliy tadqiqotlar chet ellik olimlardan P. Pravec, R.P. Binzel, E. Bowell, A.W. Harris, S.J. Ostro, D.J. Scheeres, D. Nesvorny, D. Vokrouhlicky, N.A. Moskovitz, Yu. N. Krugly, V. G. Shevchenko, D. Polishook, K. Muinonen, MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi) mamlakatlaridan Yu.D. Medvedov, I.E. Molotov, Yu.A. Chernetenko, V.B. Kuznetsov, A. Serebryanskiy, L.I. Shestakova va boshqa bir qator olimlarning ilmiy ishlarida qisman o‘z aksini topgan. Respublikamizda hozirda Quyosh tizimi kichik jismlarini kuzatish, ularning orbital va fizik parametrlarini tadqiq qilish va shu orqali ularning evolyutsiyasi, dinamikasi va populyatsiyasini o‘rganishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda va ma’lum ijobiy natijalarga erishildi. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu tadqiqot ishi bizning mamlakatimizda asteroidlarni o‘rganish sohasi bo‘yicha birinchi dissertatsiya ishi hisoblanadi.

Bugungi kunda Quyosh tizimi kichik jismlari – asteroidlar haqidagi zamonaviy bilimlarning katta qismi Yerdan kuzatishga asoslangan optik va radar kuzatuvlaridan olingan. Shuningdek, Quyosh tizimi kichik jismlariga kosmik missiyalar jo‘natish ham juda qimmatli ma’lumotlarni bersada, bu imkoniyatdan foydalanishning cheklanganligi optik kuzatuvlarning ahamiyatini yanada orttiradi. Optik kuzatuv usullari nisbatan arzon va kuzatuv nuqtalarining keng tarmog‘i orqali osmon sferasining katta maydonlarini qamrab olish mumkin. Shuningdek, samarali kompyuter algoritmlari asteroidlarning katta hajmli kuzatuvlari

ma'lumotlarni tahlil qilishi mumkin (Jedicke va boshq., 2002; Larson, 2007; McMillan, 2007; Pravdo va boshq., 1999; Stokes va boshq., 2000; Kubica va boshq., 2007; Kaiser, 2004).

Asteroidlar protoplanetar tumanlik paydo bo'lishining qoldiqlari sifatida bizning Quyosh tizimimiz tarixini va uning qanday rivojlanganligini ko'rsatib beradi (Morbidelli va boshq., 2002, 2005). Gravitatsion va nogravitatsion effektlar ta'sirini o'rganish asteroidlar dinamikasi haqidagi bilimlarimizda sezilarli yutuqlarga olib keldi (Rosemary 2013). Bu Bosh-belbog' asteroidlarining Yer orbitasiga yaqin orbitalarga qanday keltirilishini yoritib beradi (Bottke va boshq., 2002b) va ma'lum kichik jismlardan iborat oilalarining tuzilishiga oydinlik kiritadi (Bottke va boshq., 2006). Yarkovskiy effekti Yerga Yaqinlashuvchi Asteroidlar (YYA) orbitalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va eng aniq traektoriya prognozlarini, shu jumladan potentsial xavfli asteroidlarni bashorat qilish uchun uning ta'sirini hisobga olish kerak (Giorgini va boshq., 2002; Chesli, 2006; Giorgini va boshq., 2008; Milani va boshq., 2009). Hozirda Asteroidlar ichida Yerga yaqinlashuvchilarining to'qnashuv xavfi (Harris, 2008) ular ustidagi keng ko'lamli tadqiqotlarga sabab bo'lib, ayrim dalillar ularning ba'zi meteoritlarning manbai bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi (Burbine va boshq., 2002). Ularning Yerdagi biologik evolyutsiya jarayoniga ta'sir eta olishi (Alvarez va boshq., 1980; Hildebrand va boshq., 1991) bu asteroidlarning ayrim kosmik missiyalarning tadqiqot ob'yektiga aylanishiga (Farquhar va boshq., 2002) va sayyoramizni himoya qilish uchun ularga kinetik ta'sir qilish (Tomas va boshq. 2023) usullaridan foydalanishga olib keladi. Kinetik ta'sir bilan bog'liq sinovlar hali insoniyat va fan uchun yangilik, bunday ta'sir oqibatlari qanday bo'lishi yaxshi o'rganilmaganligi bu boradagi modellarni qat'iy tahlil qilib chiqishni taqozo etadi.

Hozirda Quyosh tizimi kichik jismlari D.J. Scheeres (2007) tomonidan taklif qilinganidek aylanish-parchalanish orqali o'zaro bog'langan orbitalarda harakatlanuvchi qo'shloq (ikkilik) asteroidlar va juda o'xshash, ammo alohida orbitalarda harakatlanuvchi o'zaro genetik bog'liq asteroid juftliklarini hosil qiladilar deb hisoblaniladi.

Aniqlangan ilk asteroid juftliklari Vokrouhlicky va Nesvorny (2008) tomonidan kashf qilingan bo'lib, hozirda ular Pravec va Vokrouhlicky (2009), D. Nesvorny (2010) hamda Rozek va boshqalar (2011) tomonidan ishlab chiqilgan usullar orqali aniqlanadi. Pravec va boshqalar (2010) 32 ta asteroid juftlik namunasini o'rganib chiqib asteroid juftligi birlamchising aylanish chastotalari va asteroid juftlari massa nisbati o'rtasidagi bog'liqlikni topgan. Asteroid juftlarining batafsil kuzatuvlari Moskovitz (2012), Duddy va boshqalar (2012, 2013), Wolters va boshqalar (2014) va Polishook va boshqalar (2014a) tomonidan amalga oshirilgan. Aniqlangan asteroid juftliklari soni hali haqiqiy manzarani aks ettirmaydi. Ular orasida aylanish-parchalanish jarayoni orqali to'liq tushuntirib bo'lmaydigan ob'yektlar borligi bu boradagi tadqiqotlarni davom ettirish va iloji boricha ko'proq statistik ma'lumotlar to'plamini yig'ishni taqozo etadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutining

“Galaktika astronomiyasi” laboratoriyasi ilmiy-tadqiqot rejalariga muvofiq, hamda quyidagi:  $\Phi A-\Phi A-\Phi 026$  “Quyosh tizimidagi kichik sayyoralarni qidirish va kuzatish, ularni orbital va fizik xossalarini tadqiq etish” (2012–2016),  $BA-\Phi A-\Phi-2-010$  “Sayyoralar tizimi jismlarining fazoviy va kinematik xususiyatlarini optik kuzatuvlar asosida tadqiq etish” (2017–2020) ilmiy loyihalar tadqiqotlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Quyosh tizimi kichik jismlari (asteroidlar) ning orbital va fizik parametrlarini Maydanak va hamkor observatoriyalar ma’lumotlari, shuningdek, boshqa ochiq manba’lar asosida tadqiq etish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Quyosh tizimi kichik jismlarining Maydanak observatoriyasi kuzatuv ma’lumotlari bankini yaratish;

Olingan ravshanlik egri chiziqlari tarkibidagi davriy tashkil etuvchilarni aniqlash;

Davriy tashkil etuvchilardan ob’yektlarning qo’shaloqlik (ikkilik) belgilarini qidirish;

Aniqlangan yoki avvaldan ma’lum qo’shaloqlarning orbital va fizik parametrlarini aniqlash;

Asteroidlar genetik juftliklarini o’rganish va ularga tegishli fizik-orbital parametrlarni aniqlash;

**Tadqiqot obyekti** Quyosh tizimi asteroidlar Bosh-belbog’i ob’yektlari hamda Yerga yaqinlashuvchi asteroidlar.

**Tadqiqot predmeti** Quyosh tizimi kichik jismlarining ravshanlik egri chiziqlarida namoyon bo’ladigan davriy tashkil etuvchilar va ularning vaqt bo’yicha o’zgarishi orqali kechadigan fizik jarayonlarni o’rganish hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Quyosh tizimi kichik jismlarini kuzatish usullari, raqamli tasvirlarga ishlov berishning umume’tirof etilgan usullari, raqamli tasvirlar orqali fotometrik o’lchash usullari, fotometrik vaqt qatorlaridagi geometrik va fizik tashkil etuvchilarni aniqlash usullari, aniqlangan ma’lumotlarning fotometrik tahlili va olingan natijalarni standartlashtirish usullari.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliliigi** Quyosh tizimi kichik jismlari kuzatuv, kuzatuv ma’lumotlarga ishlov berish va tahlil qilishning zamonaviy tasdiqlangan usullarini qo’llash bilan, hamda dunyoning boshqa kuzatuv nuqtalarida olingan natijalar bilan taqqoslanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

300 ga yaqin Quyosh tizimi kichik jismlarining kuzatuvlari o’tkazilib, noyob ma’lumotlar banki yaratilgan;

Umumiy hisobda 50 ga yaqin ob’yektlar ravshanlik egri chiziqlaridagi davriy tashkil etuvchilar o’rganilib, shundan 20 ta ob’yektning o’z o’qi atrofida aylanish davri qayta o’lchanib, aniqlashtirilgan bo’lsa, 8 ta ob’yektning o’z o’qi atrofida aylanish davri ilk marta aniqlangan;

458732 (2011 MD5) asteroidining qo’shaloq ekanligi, ya’ni uning o’z tabiiy yo’ldoshi borligi kashf qilingan va shu qo’shaloq tizimga tegishli bir qancha orbital va fizik parametrlar aniqlangan;



88710 (2001 SL9) asteroidini tabiiy yoʻldoshining orbital katta yarim oʻqi kamayib, unga qulab tushishga borayotgani va bu tizimga tegishli bir qancha orbital va fizik parametrlar aniqlangan;

NASA ning DART kosmik missiyasida kosmik kema bilan toʻqnashtirilgan Didymos-Dimorfos tizimi uchun taklif etilgan modellar - toʻqnashuvdan avvalgi va keyingi oʻzaro hodisalarning real kuzatuvlaridan olingan maʼlumotlari bilan solishtirilgan;

Toʻqqizta genetik juftliklarning haqiqatdan ham genetik juftlik ekanligi tasdiqlanib, ularga tegishli bir qancha fizik-orbital parametrlar aniqlangan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Quyosh tizimi kichik jismlarining aniqlangan parametrlari Quyosh tizimi kelib chiqishi va evolyutsiyasi, shuningdek kichik jismlar populyatsiyasi va dinamikasini oʻrganish va nazariy modellarini takomillashtirish uchun qoʻllaniladi;

Kuzatuv, fotometriyalash va tahlil qilishning ishlab chiqilgan va qoʻllanilayotgan usullari Quyosh tizimining boshqa kichik jismlarini oʻrganish uchun poydevor boʻlib xizmat qiladi;

Bundan tashqari, dissertatsiyada olingan natijalarni Quyosh tizimi astronomiyasi va sayyorashunoslik boʻyicha universitetning maxsus kurslari dasturlariga kiritish mumkin;

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Maydanak observatoriyasi teleskoplarida olib borilgan kuzatishlar asosida Quyosh tizimi kichik jismlarining noyob maʼlumotlar bazasi yaratildi;

Kuzatuvlardan olingan yakka, qoʻshaloq va genetik juftliklarga tegishli qimmatli maʼlumotlar Quyosh tizimida sodir boʻlayotgan fizik hodisalarni oʻrganish uchun asos boʻladi;

Shuningdek, dissertatsiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati olingan kuzatuv maʼlumotlari bilan bevosita bogʻliq boʻlgani holda kelajakda shu va shunga oʻxshash obʼyektlarni oʻrganishda qoʻllaniladi;

**Tadqiqot natijalarining amalda qoʻllanishi.**

Dissertatsiyada ishlab chiqilgan tahlil usullari va oʻlchangan parametrlar oʻxshash obʼektlarni oʻrganishda boshqa mualliflar tomonidan qoʻllanilgan. Buni Web of Sciences, SCOPUS maʼlumotlar bazasiga va Google Scholar roʻyxatiga kiritilgan quyidagi xalqaro jurnallardagi nashrlarimizga havolalar tasdiqlaydi:

Oʻzaro genetik bogʻliq asteroid juftliklarini oʻrganish asosida tayyorlangan - Asteroid pairs: A complex picture. // Icarus, Volume 333, p. 429-463., 2019; maqolamizga (Yun Zhang va boshq. Nature communications 2022, J. Berthier va boshq. A&A 2023, Jin Beniyama va boshq. The Astrophysical Journal 2023, P. Fatka va boshq. MNRAS 2022, G. Voyatzis va boshq. Planetary and Space Science 2024 kabi ) **82** ta iqtibos keltirilgan;

Bir-birining atrofida aylanuvchi qoʻshaloq obʼyektlarni oʻrganish asosida tayyorlangan - A satellite orbit drift in binary near-Earth asteroids (66391) 1999 KW4 and (88710) 2001 SL9 - Indication of the BYORP effect. // Icarus, Volume 360 p114321., 2021; maqolamizga (R. Terik Daly va boshq. Nature 2023, Cristina A. Thomas va boshq. Nature 2023, Karolina Dziadura va boshq. A&A 2023,

Matija Cuk va boshq. The Planetary Science Journal 2021, F. Monterio va boshq. MNRAS 2021 kabi ) **26** ta iqtibos keltirilgan;

Yerga yaqinlashuvchi va potensial xavfli sifatida tasniflanuvchi 3200 Phaethon (1983 TB) asteroidini o'rganish asosida tayyorlangan - Optical observations of NEA 3200 Phaethon (1983 TB) during the 2017 apparition. // Astronomy & Astrophysics, Volume 619, id.A123, 8 pp., 2018; maqolamizga (J. Hanus va boshq. A&A 2018, P.A. Taylor va boshq. Planetary and Space Science 2019, J.R. Masiero va boshq. The Astronomical Journal 2019, N.N. Kiselev va boshq. MNRAS 2022, J.N. Purdum va boshq. The Astrophysical Journal Letters 2021 kabi ) **25** ta iqtibos keltirilgan;

Xorijiy mualliflar nashrlarida iqtibos keltirilgan ishlar soni 130 dan ortiqni tashkil etadi.

**Tadqiqot natijalarini approbatsiya qilish.** Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti seminarlarida, shuningdek, 15 dan ortiq xalqaro va milliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarini e'lon qilanganligi.** Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 30 ta ilmiy ish nashr qilingan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, uning 4 tasi yuqori reyting va impakt faktorga ega xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 137 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyani **kirish** qismida ish mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan. Ishning maqsad va vazifalari tavsiflangan. Tadqiqot natijalarining yangiligi va ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati qayd etilgan.

**Birinchi bobda** Quyosh tizimi kichik jismlarining o'rganilish tarixi va tadqiqotlarning bugungi holati qisqacha bayon qilingan. Asteroidlarning o'z o'qi atrofida aylanishi va aylanishni o'zgartirishga majburlovchi mexanizmlar sanab o'tilgan. Gravitatsion va nogravitatsion kuchlarning aylanish va aylanish-parchalanish jarayonidagi roli, qo'shaloqlar va o'zaro genetik bog'liq juftliklar hosil bo'lish jarayoni qisqacha sharhlangan. Ushbu tadqiqot ishi doirasidagi kuzatuvlar statistikasi, to'plangan ma'lumotlar bazasi va foydalanilgan asbob-uskunalar haqida malumotlar keltirilgan.

Ushbu tadqiqot ishida Quyosh tizimi kichik jismlari kuzatuv ma'lumotlarining katta qismi 2012-2023 yillar oralig'ida Maydanak observatoriyasining teleskoplar yordamida olingan. Shuningdek, ayrim ob'yektlar kuzatuvlarida Samarqand va Parkent ilmiy o'quv observatoriyalari teleskoplaridan ham foydalanilgan. Kuzatuvlarda Maydanak observatoriyasi va Samarqand va Parkent ilmiy o'quv observatoriyalarning turli o'lchamdagi 6 ta teleskoplaridan foydalanilgan. Turli o'lchamlardagi AZT-22, Z-1000, NT-60, ST-60, GP-48 va AZT-14 kabi teleskoplar shular jumlasidandir.

Yuqorida sanab o‘tilgan teleskoplarda SI 600 (SNUCAM), FLI Micro Line 09000-65, FLI IMG1001E, Andor iKon-L 936, FLI ProLine 4710 va Bro Cam SITE005 kabi ZAQ (Zaryadli Aloqa Qurilmasi) kameralaridan foydalanilgan. Kuzatuvlarda Bessel tipidagi BVRI yorug‘lik filtrlaridan foydalanilgan.

Umumiy hisobda, Maydanak observatoriyasi, Samarqand va Parkent ilmiy-o‘quv observatoriyalarida 2012-2023 yillar davomida jami 300 ga yaqin Quyosh tizimi kichik jismlarining optik-raqamli kuzatuvlari olib borilgan. Kuzatuvlar natijasida hajmi 10 TB dan ortiq bo‘lgan Quyosh tizimi kichik jismlarining kuzatuv ma’lumotlari bazasi yaratilgan.

**Ikkinchi bobda** kuzatuv ma’lumotlarini qayta ishlash, tahlil qilish, instrumental va geometrik tashkil etuvchilarni hisobga olish, qisqartish, davriy tashkil etuvchilarni baholash usullari va ayrim natijalar keltirilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi (§2.1) astrotasvirlarni qayta ishlash va fotometrik o‘lchashlarni amalga oshirishga bag‘ishlangan. Raqamli tasvirlarni birlamchi qayta ishlashda bias, dark va flat yordamchi tasvirlari hisobga olindi. Fotometrik o‘lchashlarni amalga oshirishda Signal-Shovqin nisbatining optimal qiymatlarini tekshirish orqali ob‘yekt va taqqoslov yulduzlari uchun diafragma va osmon foni halqalarining o‘lchamlari aniqlandi. Diafragmalar to‘g‘ri tanlangach, hisob kitoblardan uskuna kattaliklar olindi. Uskuna kattaliklarini tahlil qilish va standartlashtirishda “Differensial fotometriya” va “Absolyut fotometriya” usullaridan foydalanildi.

Ikkinchi paragrafda (§2.2) ravshanlik egri chiziqlaridagi geometrik tashkil etuvchilar muhokama qilinadi. Kuzatuv natijalaridagi bir kechalik o‘zgarishlar asosan asteroidning geometrik shakli va uning spin vektori bilan bog‘langan. Uzoq muddatli o‘zgarishlar tarkibi esa, masofa va Quyosh-Nishon-Kuzatuvchi geometriyasining o‘ziga xosliklarini ifodalaydi. Masofalarning ravshanlik egri chizig‘iga ta’sirini quyidagi tenglama yordamida hisobga olish mumkin:

$$V(a) = V - 5 \log(r * \Delta) \quad (1)$$

Bu yerda  $V(a)$  -  $a$  burchak uchun asteroidning hisoblangan yulduz kattaligi.  $r$  va  $\Delta$  esa mos ravishda Asteroid-Quyosh va Asteroid-Yer orasidagi masofalardir. Bundan tashqari asteroidlar ham xuddi Oy kabi fazalarga ega va buning ta’sirini hisobga olish lozim. Asteroidlar faza egri chiziqlari uchun bir qancha turli matematik yechimlar mavjud bo‘lib, ular ichida H,G kattaliklar faza funksiyasi 1985 yilda Xalqaro Astronomiya Ittifoqi tomonidan qabul qilingan:


$$\begin{aligned} 10^{-0.4V(a)} &= \alpha_1 \Phi_1(a) + \alpha_2 \Phi_2(a) \\ &= 10^{-0.4H} [(1 - G)\Phi_1(a) + G\Phi_2(a)] \end{aligned} \quad (2)$$

bu yerda  $a$  faza burchagi,  $V(a)$  esa asteroidning masofa tashkil etuvchilaridan holi bo‘lgan  $a$  burchakdagi kattaligidir.  $\Phi_1, \Phi_2$  bazaviy funksiyalari trigonometrik funksiyalar orqali aniqlanadi.  $\alpha_1$  va  $\alpha_2$  koeffitsientlar emperik usulda kuzatishlar natijasidan olinadi.

Uchinchi paragrafda (§2.3) ravshanlik egri chiziqlaridagi davriy tashkil etuvchilarni aniqlashga qaratilgan tahlillar natijalari keltirilgan. Ravshanlik egri chiziqlaridagi davriy tashkil etuvchilar kichik jismlarning o‘z o‘qi atrofida aylanish davri va uning tabiiy yo‘ldoshlari tufayli hosil bo‘ladi. Bilamizki, Yerda olib boriladigan optik kuzatuvlar notekis va nochiziqli vaqt qatorlari sifatida

ifodalaniladi. Nochiziqli vaqt qatrolaridagi davriy tashkil etuvchilarni izlashning bir qator keng tarqalgan usullari mavjud. Lomb-Scargle periodogrammasi usuli (LS), Dispersion tahlil usuli (Analysis of variance - AOV), Spektrial quvvat usuli (Power-spectrum - PS), Faza dispersiyasini minimallashtirish usuli (phase dispersion minimization - PDM) va  $\chi^2$  usuli shular jumlasidandir.

Biz o'zida bir yoki bir qancha usullarni birlashtirgan dasturiy ta'minotlar orqali davriy tashkil etuvchilarni izlaganmiz. LS usuli orqali davriy tashkil etuvchilarni izlovchi, o'zimiz yozgan dasturiy ta'minotlar, Peranso, Period04 va MPO Canopus kabi dasturiy ta'minotlar orqali vaqt qatrolari tahlilini amalga oshirganmiz. Tahlillar natijasida 50 dan ortiq asteroidlar vaqt qatrolarida davriy tashkil etuvchilar mavjudligi aniqlangan. 20 dan ortiq asteroidlarning o'z o'qi atrofida aylanish davrlari qayta aniqlangan yoki aniqlashtirilgan. Bundan tashqari yana 8 ta asteroidlarning o'z o'qi atrofida aylanish davri ilk marta aniqlangan. Misol tariqasida 1-rasmda davri ilk marta aniqlangan 51442 (2001 FZ25) va 19469 (1998 HV45) asteroidining davriy ravshanlik egri chiziqlari keltirilgan.




**1-rasm.** 51442 (2001 FZ25) va 19469 (1998 HV45) uchun olingan davriy ravshanlik egri chiziqlari.

To'rtinchi paragraf (§2.4) esa Yerga yaqinlashuvchi va Potensial xavfli asteroid sifatida tasniflangan 3200 Phaethon (1983 TB) ning kuzatuvlari natijalariga bag'ishlangan. U 2025-yilda Yaponiya kosmik tadqiqotlar agentligining Kosmos va Astronavtika fanlari instituti tomonidan uchirilishi mo'ljallangan DESTINY<sup>+</sup> missiyasining tadqiqot maqsadi hisoblanadi.

Phaethon kuzatuvlaridan yuqori sifatli zich fotometrik ma'lumotlarni olish imkoniyati 2017 yil oxirida paydo bo'ldi. O'shanda uning Yerga so'ngi 40 yil ichidagi eng yaqin yaqinlashishi edi. Biz ayni o'sha 2017-yilda aylanish xususiyatlarini o'rganish va qutb yechimini yaxshilash uchun Phaethonning fotometrik kuzatuv kompaniyasida ishtirok etdik. Kuzatuvlar Osiyo va Amerika qit'alarida joylashgan Maydanak va yana 7 ta observatoriyalar teleskoplaridan foydalangan holda olib borilgan.

Kuzatuv ma'lumotlari to'plamini tahlil qilib, biz ikkita mustaqil usul yordamida  $3,6039 \pm 0,0004$  soatlik sinodik aylanish davrini topib, Phaethonning kompozit ravshanlik egri chizig'ini oldik (2-rasm o'ng panel). Ravshanlik egri chizig'ining amplitudasi  $0,095 \pm 0,035$  magnitudani tashkil qildi. Bunday kichik amplituda deyarli sferik shakl sifatida qabul qilinadi. Bundan tashqari, biz


ravshanlik egri chiziqlari inversiyasi LI (Lightcurve Inversion) usuli va SAGE (Shaping Asteroids with Genetic Evolution) algoritmi yordamida 3,603957 va 3,603956 soat siderik aylanish davrlarini va mos ravishda ( $308^\circ$ ,  $-52^\circ$ ) va ( $322^\circ$ ,  $-40^\circ$ ) qutb orientatsiyalarini oldik. Ikkala usuldan ham 3D shakl modellari olindi (2-rasm chap panellar). Ushbu tadqiqotda olingan shakl modeli va qutb ma'lumotlari nafaqat Phaethonning keyingi tadqiqotlari uchun, balki asteroidga yuborish mo'ljallanayotgan DESTINY<sup>+</sup> missiyasi uchun ham kerakli ma'lumotlarni taqdim etadi.



**2-rasm.** Phaethon uchun LI (chap yuqori panel) va SAGE (chap pastki panel) modellari va davriy ravshanlik egri chiziqlari (o'ng panel).

**Uchunchi bob** 458732 (2011 MD5), 88710 (2001 SL9) va 65803 Didymos (1996 GT) kabi qo'shaloq asteroid tizimlari tadqiqotlari natijalarini aks ettiradi. Tadqiqot ishida bu qo'shaloq asteroid tizimlaridan birinchisining qo'shaloqlik fakti ilk marta qayd etilgan. Ikkinchisining orbital dinamikasida tabiiy jarayonlar tufayli o'zgarishlar aniqlangan bo'lsa, uchinchisining orbital dinamikasidagi o'zgarishlar DART kosmik kemasi bilan to'qnashuv tufayli sodir bo'lgan.

Birinchi paragrafda (§3.1) 458732 (2011 MD5) kuzatuvlari va qo'shaloqlik faktining aniqlanishi sharhlanadi. Yerga yaqinlashuvchi va Apollonlar guruhi tarkibiga kiruvchi bu asteroid Maydanak observatoriyasida 2023-yilning avgust-sentyabr oylarida jami 6 kecha davomida R filtrda 120 dan 60 sekundga qadar bo'lgan ekspozitsiya vaqtlarida kuzatilgan. Ravshanlik egri chiziqlari dekompozitsiyasining sifatini yaxshilash uchun sentyabr oyida zich nuqtalar qatorini olish maqsadida ekspozitsiya vaqti 6 sekundga qadar kamaytirilgan.



**3-rasm.** 458732 (2011 MD5) aylanish (chapda) va qo'shaloq tizimi (o'ngda) ravshanlik egri chiziqlari.

Tahlillar orqali vaqt qatorida 3 soatdan ortiqroq davriylikdagi tashkil etuvchi aniqlandi. Uning o'z o'qi atrofidagi aylanish davri ilk marta topildi va

$3.1350 \pm 0.0006$  soatga teng bo'lib chiqdi (3-rasm chap paneli). Asteroid aylanishining ravshanlik egri chizig'idagi amplitudasi R filtrda 0.15 Magnitudani tashkil etadi. Bu uning sferoidga yaqin shalkdagi tez aylanuvchi jism ekanligini bildiradi.

Tahlillar umumiy ravshanlik egri chizig'ida kattaroq davrga ega yana bitta tashkil etuvchi borligini ko'rsatdi. Bu tashkil etuvchi standart dekompozitsiya usullari orqali ajratib olinib (3-rasm o'ng paneli) tahlil qilinganida, 458732 (2011 MD5) asteroidi qo'shaloq asteroid ekanligi ma'lum bo'ldi. Shunday qilib, ilk marta 458732 (2011 MD5) asteroidining o'z yo'ldishi bor ekanligi aniqlandi. Ushbu qo'shaloq tizim to'siluvchan ko'rinma geometriyaga ega bo'lib, uning yo'ldoshi asteroid atrofidagi orbita bo'ylab har  $15.16 \pm 0.02$  soatda bir marta aylanib chiqishi aniqlandi. Yo'ldoshning orbital harakati turlicha o'zaro hodisalar chuqurligiga ega: Eclipse -  $0.09^m$  ga va Okkultatsiya -  $0.16^m$  ga, diametrlar nisbati ( $D_2/D_1$ ) esa  $0.29 \pm 0.02$  ga teng.

Ikkinchi paragrafda (§3.2) Yerga yaqinlashuvchi 88710 (2001 SL9) qo'shaloq asteroid tizimining kuzatuvlari va orbital dinamikasi bayon qilingan. Tahlillarda uning 2001 yildan 2015 yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida 5 ta ro'para turishlar yaqinidagi jami 40 kechalik kuzatuv ma'lumotlaridan foydalanilgan. Kuzatuvlar turli yillarda Maydanak, La Silla, U. Hawaii, Ondrejov, Abastumani, Lowell, Simeiz va Palmer Divide kabi dunyoning 8 ta observatoriyasi hududidan olib borilgan. Olingan kuzatuv ma'lumotlari 88710 (2001 SL9) qo'shaloq asteroid tizimi uchun eng uzun qamrovdagi fotometrik ma'lumotlar to'plami bo'lib, kichik qo'shaloq asteroidlar komponentlarining o'zaro orbital evolyutsiyalarini o'rganish uchun noyob imkoniyatdir. Ma'lumotlar ikki davrli Furye qatorini o'zaro hodisalardan tashqaridagi ma'lumotlar nuqtalariga moslashtirish orqali tashkil etuvchilar: asosiy (qisqa davrli) va ikkilamchi (uzoq davrli) davriy ravshanlik egri chiziqlariga ajratildi. O'zaro hodisalarni o'z ichiga olgan uzoq davrli component raqamli modellashtirish uchun foydalanildi.


Biz Scheirich va Pravec (2009) texnikasidan foydalangan holda (88710) 2001 SL9 qo'shaloq asteroid tizimining modelini yaratdik. Ular apsidal pretsessiya bilan Kepler orbitasida bir-birining atrofida aylanib, o'rtacha anomaliyada kvadratik drift (siljish) ga imkon beradi. O'rtacha anomaliyadagi kvadratik siljish,  $\Delta M_d$  mustaqil parametr sifatida o'rnatilgan. Bu holatda vaqt bo'yicha o'zgaruvchi o'rtacha anomaliya quyidagiga teng:

$$M(t) = M(t_0) + n(t - t_0) + \Delta M_d(t - t_0)^2; \quad \Delta M_d = \frac{1}{2} \dot{n}; \quad (3)$$

Bu yerda  $n$  - o'rtacha harakat,  $t$  - vaqt va  $t_0$  - nolinch epoha.  $\Delta M_d$  (88710) 2001 SL9 uchun -9 dan +39 daraja/yil<sup>2</sup> gacha oraliqda tekshirilgan va boshqa barcha parametrlar har bir qadamda o'rnatilgan.  $\Delta M_d$  dagi qadamlar 0,01 daraja/yil<sup>2</sup> kattaligida tanlangan. O'rtacha kvadratik chetlanish (RMS) qoldiqlarining  $\Delta M_d$  ga nisbatan grafigi 4-rasmda ko'rsatilgan.

$\Delta M_d$  uchun olingan beshta eng yaxshi minimal RMS qoldiqlar mos ravishda 0.0238, 0.0238, 0.0245, 0.0246 va 0.0248, magnitudaga teng bo'lgan. Birinchi ikkita yechim ma'lumotlarda qoniqarli moslikni ta'minlaydi, ulardan biri qo'shaloq asteroid parametrlari uchun haqiqiy yechimdir. Ammo biz mavjud

ma'lumotlar bilan ushbu ikki yechimdan birining foydasiga hukm chiqara olmaymiz. RMS qoldiqlari yuqori bo'lgan qolgan uchta yechim kuzatuv ma'lumotlarga sezilarli darajada yomon moslashgan va ularning real yechimlardan uzoqligi aniq.




**4-rasm.** RMS qoldiqlarining  $\Delta M_d$  ga nisbatan grafigi.

Xulosa qilib aytganda, biz (88710) 2001 SL9 uchun deyarli 14 yil davomida beshta ko'rinishda olingan fotometrik kuzatishlarimiz ma'lumotlari orqali qo'shaloq tizim o'zaro orbitasining uzoq muddatli evolyutsiyasini o'rgandik. Uning o'zaro orbitasi ekliptik koordinatalar qutbi (L,B)=(302°, -73°) ekanligini va orbitaning o'zi aylanaga yaqin ( $e < 0,07$ ) ekanligi topildi. Biz uning o'zaro orbitasining katta yarim o'qi (taxminan  $\sim 1,6$  km)  $-2,8 \pm 0,2$  yoki  $-5,1 \pm 0,2$  sm/yil ( $\Delta M_d$  uchun mos ravishda 2.8 va 5.2 daraja/yil<sup>2</sup>) tezlik bilan qisqarayotganini aniqladik.

Uchinchi (§3.3) va to'rtinchi (§3.4) paragraflarda 65803 Didymos (1996 GT) qo'shaloq asteroid tizimiga DART (Double Asteroid Redirection Test) kosmik missiyasining to'qnashtirilishi doirasidagi kuzatuvlari va tahlillari keltirilgan. 2022-yil 26-sentyabrda DART kosmik missiyasi Yerga yaqinlashuvchi qo'shaloq asteroid (65803) Didimosning tabiiy yo'ldoshi Dimorfosga zarba berdi. Bu Dimorfosning orbital davrini 33 daqiqaga o'zgartirib, sayyoramizni himoya qilishda kinetik ta'sir vositasining samaradorligini ko'rsatdi. To'qnashuvga qadar Didimosning o'z o'qi atrofida aylanish davri  $= 2,2600 \pm 0,0001$  soat, Dimorfosning Didymos atrofidagi orbital aylanish davri esa  $= 11,921481 \pm 0,000016$  soat bo'lgan. To'qnashuvdan so'ng Dimorfos uchun yangi orbital davr  $= 11,372 \pm 0,017$  soatni tashkil etdi.

Hammasi bo'lib, Maydanak va yana 27 ta observatoriya DART ravshanlik egri chiziqlari kuzatuv kampaniyasining bir qismi sifatida qabul qilingan ma'lumotlarni olishda ishtirok etdi. Bu 2022 yilning iyulidan 2023 yilning fevraligacha aniqlangan yuzlab o'zaro hodisalarga ega 224 ta ravshanlik egri chizig'idan iborat katta ma'lumotlar to'plami demakdir. Foydalanilgan teleskoplarning diametri 0,5 metrdan 6,5 metrgacha bo'lgan va turli xil ZAQ kameralaridan foydalanilgan. To'qnashuv natijalarini o'z ichiga olgan qariyb 8 oylik ma'lumotlar bilan biz o'zaro hodisalarning modellarga nisbatan evolyutsiyasini baholadik. Ushbu tahlil uchun ishlatiladigan fotometrik modelning tafsilotlari Naidu va boshqalar (2023) da keltirilgan. Ushbu model, birinchi navbatda, parchalangan (uzlukli) ravshanlik egri chizig'idan o'zaro hodisalar

vaqtlarini aniqlashni osonlashtirish uchun ishlab chiqilgan. Model Daly va boshq. (2023) tomonidan aniqlangan hajmlar asosida Dimorfos va Didimos uchun aylana simmetrik ellipsoid shakllaridan foydalangan. Ushbu model o‘zaro hodisalarning vaqti va morfologiyasi (shakli, chuqurligi) uchun real bashoratlarni ishlab chiqadi.



**5-rasm.** To‘qnashuvdan oldingi (chapda) va keyingi (o‘ngda) kuzatuv ma’lumotlarini modellar bilan solishtirish.

Yuqoridagi 5-rasmda to‘qnashuvdan oldingi va keyingi ravshanlik egri chiziqlaridagi o‘zaro hodisalar model bilan solishtirilgani ko‘rsatilgan. Bunday hollarda hodisalarning vaqti va sifati modellar tomonidan yaxshi ifodalangan. Biroq, Naidu va boshqalar (2023) ning o‘zaro hodisalar modellari haddan tashqari chuqur. To‘qnashuvdan keyingi ma’lumotlarda modellar o‘zaro hodisalarning chuqurligini ortiqcha bashorat qiladi, bu farq tizimdagi qoldiq tashlanmalarning ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

**To‘rtinchi bobda** bir-biriga juda o‘xshash geliosentrik orbitalarda harakatlanuvchi o‘zaro genetik bog‘liq asteroid juftliklari tadqiqotlari berilgan. Ushbu bobning birinchi (§4.1) va ikkinchi (§4.2) paragraflarida mos ravishda asteroid juftliklarini aniqlash, tadqiqot uchun tanlash mexanizmlari va har bir juftlikning kuzatuv va tahlili natijalari keltirilgan.

Biz Pravec va Vokrouhlicky (2009) usulidan foydalangan holda o‘rtacha orbital elementlarning ( $a$ ,  $e$ ,  $i$ ,  $\bar{\omega}$ ,  $\Omega$ ) besh o‘lchovli fazosida asteroid masofalarining taqsimlanishini tahlil qilish orqali nomzod asteroid juftlarini aniqladik. Ikki asteroid orbitasi orasidagi masofa ( $d_{mean}$ ) quyidagi musbat-aniq kvadratik shakl bilan hisoblangan:

$$\left(\frac{d_{mean}}{na}\right)^2 = k_a \left(\frac{\delta a}{a}\right)^2 + k_e (\delta e)^2 + k_i (\delta \sin i)^2 + k_\Omega (\delta \Omega)^2 + k_{\bar{\omega}} (\delta \bar{\omega})^2 \quad (4)$$


Bu yerda  $n$  va  $a$  ikki asteroiddan birortasining o‘rtacha harakati va katta yarim o‘qi, shuningdek ( $\delta a$ ,  $\delta e$ ,  $\delta \sin i$ ,  $\delta \bar{\omega}$ ,  $\delta \Omega$ ) ularning o‘rtacha orbital elementlarini ajratish vektori. Zappala va boshqalar (1990), Pravec va Vokrouhlicky (2009) dan so‘ng biz  $k_a = 5/4$ ,  $k_i = 2$ , va  $k_{\bar{\omega}} = k_\Omega = 10^{-4}$  qiymatlardan foydalandik. Ikki asteroid orbitasi orasidagi masofa  $d_{mean}$  asteroidlar nisbiy tezligining taxminiy o‘lchovidir. Aksariyat asteroid juftlari uchun u bir necha  $10^{-1}$  dan bir necha  $10^1$  m/s gacha oraliqda bo‘ladi.

Biz 93 ta asteroid juftlarini ko‘rib chiqdik. Maydanak observatoriyasi kuzatuv imkoniyatlari va hamkor observatoriyalar kuzatuv ma’lumotlarini hisobga




